

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI FAN
DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
№DSc.03/30.12.2019.I.03.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA DILFUZA ABUBAKIROVNA

**SANOAT KORXONALARINING TASHKILY-IQTISODIY FAOLIYATI
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
(«Olmaliq KMK» AJ misolida)**

08.00.03 - «Sanoat iqtisodiyoti»

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Abdullayeva Dilfuza Abubakirovna

Sanoat korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish
(«Olmaliq KMK» AJ misolida)5

Абдуллаева Дилфуза Абубакировна

Совершенствование механизма организационно-экономической деятельности
промышленных предприятий (на примере АО «Алмалыкский ГМК»)26

Abdullaeva Dilfuza Abubakirovna

Improving the mechanism of organizational and economic activities of industrial
enterprises (on the example JSC «Almalyk MMC»)51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI FAN
DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
№DSc.03/30.12.2019.I.03.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA DILFUZA ABUBAKIROVNA

**SANOAT KORXONALARINING TASHKILY-IQTISODIY FAOLIYATI
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
(«Olmaliq KMK» AJ misolida)**

08.00.03 - «Sanoat iqtisodiyoti»

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Iqt565 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdtu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Muxitdinova Kamola Alisherovna**
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Ikramov Murat Akramovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yuldasheva Saodat Arslanovna
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti "MISiS"**

Dissertatsiya himoyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti xuzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.03.05 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «___» _____ da soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2 uy. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32; e-mail: tdtu_info@tdtu.uz.

Dissertatsiya bilan Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2 uy. Tel.: (99871) 246-03-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «___» _____dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi.

N.M.Maxmudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

G.J.Allayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

M.Saitkamolov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar kotibi, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon oltin bozori global miqyosda oltin singari qimmatbaho metalning butun jahon iqtisodiyotidagi aylanish tizimini – ishlab chiqarish, tarqatish, iste'mol qilishni keng qamrab oladi. Markaziy bank ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2022-yilning 3-choragida jahon miqyosida oltin bo'lgan talab yillik hisobda 28 % va o'tgan chorakka nisbatan 22%ga oshib, 1181,5 tonnani tashkil etdi. O'sish zargarlik buyumlari va investitsiya segmentlarida kuchli iste'mol talabi, shuningdek, markaziy banklarning kuchli talabi bilan qo'llab-quvvatlandi.¹ Oltin bozorining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, birinchidan, oltin deyarli barcha davlatlar tomonidan sug'urta va zaxira fondi sifatida ishlatiladi. Mamlakatning Markaziy banklari va zaxiralarida to'plangan oltinning qayd etilgan davlat zaxiralari doimiy uni to'ldirishga ko'plab mablag' sarflaydi. Bu mazkur sohaning uzluksiz rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, uning innovatsion va investitsion siyosatining qat'iy yuritilishi bilan belgilanadi.

So'nggi 25 yil ichida oltin qazib olish va razvedka ishlarini rivojlantirishning global tendensiyalari tahlili shuni ko'rsatadiki, oltin ishlab chiqarishni ko'paytirish va kamaytirishda faol tendensiyalar mavjud. Yetmishinchi yillarda oltinning bozor narxi bir necha bor oshishi, jahon hamjamiyatining aksariyat mamlakatlarida uni ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga keskin ta'sir ko'rsatdi. Mahsuldorligi kam bo'lgan va boyitilishi qiyin bo'lgan rudalarni qayta ishlash, balansdan tashqari zaxiralarni (ilgari texnik, texnologik va iqtisodiy sabablarga ko'ra qazib olish uchun yaroqsiz deb hisoblangan) ishga jalb qilish, ilgari tashlab ketilgan va istiqbolli karyerlar va poligonlar, konlar va konlarning ishlashini tiklash, ma'lum miqdordagi metallarni o'z ichiga olgan ko'plab kon va qayta ishlash zavodlarining texnogen chiqindilarini qayta ishlash (bog'liq komponentlar sifatida yoki birlamchi qayta ishlash jarayonida to'liq qazib olinmagan) foydali bo'ldi. Bu oltin qazib olish sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmida qator kamchiliklarning mavjudligidan dalolat beradi. Shunga ko'ra, oltin qazib olish sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini tadqiq etish mazkur dissertatsiya ishining dolzarbligini oshiradi.

Oltin qazib olish va qayta ishlash mamlakat iqtisodiyotiga katta hissa qo'shadi. Bunday hissa shartli sof ishlab chiqish hajmi (qo'shilgan qiymat) bilan belgilanadi. Barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholash natijasida mamlakatimizdagi oltin qazib olish sanoati korxonalaridan biri bo'lgan «Olmaliq KMK» AJning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini to'liq takomillashtirilmaganligi, oltin qazib olish sanoatining infratuzilmaviy rivojlanishiga to'sqinlik qilishini oldini olish maqsadida ilmiy tadqiqot ishida korxonaning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish va uning samaradorligiga erishish o'rganilgan.

So'nggi yillarda mazkur sanoat sohasini strategik rivojlantirish yuzasidan qator qarorlar qabul qilinib, tegishli loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi «Kon-

¹ <https://ru.investing.com/analysis/article-200297699>

metallurgiya tarmog‘i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4124-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-iyundagi «Kon-metallurgiya sanoati va unga bog‘liq sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5159-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-avgustdagi «Geologiya, kon-metallurgiya va misni qayta ishlash sanoatini uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi VM-498-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-avgustdagi «Geologiya, kon-metallurgiya va misni qayta ishlash sanoatini uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi VM-474-sonli Qarori har tomonlama sohaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlamog‘da.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tajribasida oltin qazib olish sanoati korxonalarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, shuningdek turli sohaviy rivojlantirish yuzasidan S.Y.Gaganov, A.V.Fafelov, V.N.Kotenov, A.A.Lobanova, O.Y.Osokina, A.Tolmachev, J.K.Galiev, N.V.Galieva, B.Luzin, Y.Kuchenko, L.Gurvits, A.Kulman, A.N.Bichkova, M.D.Korral, D.Xatton, M.Skonetsskiy, A.X.Bassam, B.Xausberger, J.X.Morris, J.Safford singari olimlar ishlarida ko‘rish mumkin.²

² Гаганов С.Ю. Организационно-экономический механизм управления спросом на золото в современной экономике: диссертация кандидата экономических наук: 08.00.05 / Место защиты: ФГБОУ ВПО Российский государственный геологоразведочный университет имени Серго Орджоникидзе], 2016.- 188 с/ Фефелов А.В. Экономическое обоснование эффективности разработки россыпных месторождений золота артелями старателей: Дис. канд. экон. наук: 08.00.05: Москва, 2001 160 с. РГБ ОД, 61:02-8/1195-6// Котенев В.Н. Совершенствование организационно-экономического механизма функционирования золотодобывающих предприятий (На примере АК "Золото Нерюнгри"): Дис. канд. экон. наук: 08.00.05 : Москва, 2001 178 с. РГБ ОД, 61:01-8/2624-1// Лобанова А.А. Организационно-экономическое обоснование предложения золота на российском рынке драгоценных металлов: дис. канд. экон. наук: 08.00.05 Москва, 2006 140 с. РГБ ОД, 61:07-8/930// Осокина О.Ю. Механизм повышения экономической эффективности золотодобывающих предприятий на основе компенсационного лизинга, дис. канд. экон. наук : 08.00.05 Москва, 2001 140 с.// А. Толмачев, Ж.К. Галиев, Н.В. Галиева. Экономическое обоснование развития предприятия россыпной золотодобычи на основе формирования системы проектного финансирования 2017 г, 48 с// Лузин Б. Экономические проблемы золотодобывающей промышленности, Горная книга, 2017 г, 192 с//Кученко Е. Организационно-экономический механизм устойчивого развития региона. Бибком. 2016 г, 225 с// Hurwicz, L. On informationally decentralized systems // Decision and Organization. Amsterdam: North-Holland. - 1972. pp. 297 - 336.// Кульман, А. Экономические механизмы; пер. с фр. Н.И. Хрусталева. - М.: Издательская группа «Прогресс», «Универс», 1993.// Бычкова, А.Н. Экономический механизм: определение, классификация и применение// Вестник ОмГУ. Серия: Экономика. - 2010.- №4. - С.37-43.//Corral M.D. Formation and resource estimation? Economic and environmental impact. Nova Science Publishers, Inc.; UK ed. edition (July 31, 2009, 227 p//Hutton C. Mining economics explained: a guide for boards, executives, managers and investors. Independently published, April 12, 2022 y, 227 p// Skonieczny M/ How gold companies finance themselves financing options at various stages of development and production. Investment Publishing; 1st edition, November 20, 2016 y, 112 p// Hausberger B, Oro y plata en los inicios de la economía global: De las minas a la moneda (Spanish Edition). El Colegio de México, 31 Julio 2015, 370 p//Morris J.H. Going for gold: The history of Newmont Mining Corporation. University of Alabama Press, 2016 y, 334 p// Safford J. The mechanics of optimism: Mining companies technology and the hot spring gold rush, montana territory. 2004 y, 265 p

O‘zbekistonda oltin qazib olish sanoati korxonalari va ularning samaradorligini oshirishning iqtisodiy masalalarini A.E.Nishonboyev, I.M.Kleandrov, V.A.Roments, O.Valiyev, M.U.Isoqov, K.Kurpayanidi singari olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Yuqorida keltirilgan olimlarning tadqiqot ishlari ilmiy-amaliy, uslubiy-loyihaviy, dasturiy manba bo‘lib xizmat qilsada, ularda mamlakatimizda kondan oltin qazib olishni uslubiy baholash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, oltin qazib olish hajmini o‘shining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholash bo‘yicha iqtisodiy va moliyaviy masalalari, shuningdek, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi yoritilmagan.

Mahalliy olimlarning tadqiqot ishlarida «Olmaliq KMK» AJ misolida izlanishlar olib borilishiga qaramasdan, konlardan oltin qazib olishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga urg‘u bergan holda ishlab chiqarish faoliyatini izchil va raqamli takomillashtirish, zamonaviy texnologik yangilanishlarni amalga oshirish orqali innovatsion faoliyatning iqtisodiy va texnologik samaradorligini texnik-iqtisodiy baholanishi yuzasidan tadqiqotlar olib borilmaganligi va izlanishlanishlarning noyobligi dissertatsiya mavzusi tanlovini, uning dolzarbligini asoslaydi.

Dissertatsiya mavzusi dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №F1-100 «O‘zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi va modernizatsiya sharoitida mamlakatning investitsion salohiyati nazariyasini ishlab chiqish va uning shakllanish mexanizmlarini yaratishning ilmiy asoslari» mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi – «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyati tizimida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar majmuini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, ishda quyidagi asosiy vazifalar qo‘yildi:

oltin qazib olish sanoatida korxonaning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy yondashuvlari hamda ularning ilmiy mohiyatini ochib berish;

korxonaning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini baholash yuzasidan uslubiy va modelli baholashni tadqiq etish hamda indikatsion baholash usulini ishlab chiqish;

korxonaning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini afzallik va kamchiliklarini baholashda xorij tajribasidan foydalanish orqali ichki imkoniyatlarni o‘stirish;

korxonada mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni tahlil etish va uni takomillashtirish borasida tavsiyalar ishlab chiqish, tavsiyalarni iqtisodiy va istiqbolli asoslash.

Tadqiqotning obyektini «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyatining joriy oltin qazib olish faoliyati olingan.

Tadqiqot predmeti. «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyati oltin qazib olish faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda iqtisodiy jarayonlardan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda tizimli, omilli, modeli, sinergetik tahlil qilish, ekspert va dasturiy baholash, statistik taqqoslash, iqtisodiy-matematik modellashdirish, bashoratlash hamda loyihalashtirish usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Mamlakatimizda oltin qazib olish sanoati korxonalarini xalqaro baholash indikatsiyasini ishlab chiqish maqsadida faoliyatning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini iqtisodiy rivojlantirish indikatorlar asosida takomillashtirilgan;

«Olmaliq KMK» AJda ishlab chiqarish faoliyati mehnat unumdorligini yanada oshirish maqsadida ish hajmiga bogʻliq va bogʻliq boʻlmagan ish faoliyatini muvozanatlashtirilgan koʻrsatkichlar (BSS Balansed Scorecard) modeli takomillashtirilgan va uning algoritmi ishlab chiqilgan;

«Olmaliq KMK» AJning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va oltin qazib olish sanoati korxonalarida GPS(V-avlodi) ilgʻor texnologiyalardan foydalanishni va tajriba almashuv mediakutubxonasi kengaytirishni ragʻbatlantirish mexanizmi takomillashtirilgan;

Mamlakatda oltin qazib olish sanoati korxonalariga «Advanta» texnologiyasini joriy etilishi boʻyicha «Micromine Beyond» texnologiyasi asosida tashkiliy-iqtisodiy mexanizm koʻrsatkichlari prognozi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Oltin qazib olish korxonalarini iqtisodiy rivojlantirish indikatorlari usuli asosida baholash tizimining nazariy va amaliy jihatlari asoslangan;

Konlarda innovatsion faoliyat va texnologik vositalarni tadbiq etish, texnik-iqtisodiy samaradorlikni oshirish yoʻllari yuzasidan xorijiy tajribalarni qoʻllashning taklif va tavsiyalari ishlab chiqilgan;

Oʻzbekiston oltin qazib olish sanoati zaxirasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni muvozanatlashtirilgan koʻrsatkichlari modeli orqali rivojlantirish qadamlari takomillashtirilgan hamda qazib olishni muqobillashtirish yuzasidan algoritmnining texnik-iqtisodiy, amaliy ahamiyati yoritilgan;

Oltin qazib olish sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining faollashuvi va uning boshqaruv faoliyatidagi ishtirokini maksimal darajada taʼminlash maqsadida «Olmaliq KMK» AJ misolida tashkiliy-iqtisodiy mexanizm ishlab chiqildi;

Oltin qazib olish sanoati korxonalarida ilgʻor texnologiyalardan foydalanishni ragʻbatlantirish mexanizmi korxonadagi ilmiy va mehnat resurslarining salmoqli ishtirokini taʼminlash maqsadida, shuningdek, texnologik bilimni oshirish, malaka orttirishga uzluksiz intilishni oshirishda xizmat qilishi yuzasidan tegishli ilgʻor texnologiyani korxonaga kiritishning investitsion loyihasi ishlab chiqildi va uning samaradorligi asoslandi;

Oltin qazib olish sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish maqsadida tadqiqot ishida taklif etilgan texnologiyalarni tadbiq etishning samaradorlik koʻrsatkichi va uning mamlakat hamda korxonaning barqaror oʻsish suraʼtiga taʼsiri darajasi prognozi ishlab chiqildi va tavsiflandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qoʻllanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, maʼlumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi va Innovatsion

rivojlanish vazirligining statistik ma'lumotlari, «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyati, O'zbekiston davlat geologiya qo'mitasidan olingani, tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan uslubiy takliflar, ilmiy asoslangan tavsiya va xulosalar oltin qazib olish sanoati korxonalarida texnologik rivojlantirish tizimi, qazib olish faoliyatiga innovatsion va raqamlashtirilgan texnologiyalarni tadbiiq etishni texnik-iqtisodiy baholash asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati korxonada tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish natijasida samaradorlikni oshirish, oltin zaxirasini samarali qazib olishda chuqur ilmiy tadqiqotlardan amaliy foydalanish imkoniyati bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar «Olmaliq KMK» AJ tomonidan amaliyotga joriy qilish uchun qabul qilingan:

Mamlakatimizda oltin qazib olish sanoati korxonalarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish maqsadida iqtisodiy rivojlantirish indikatorlari asosida baholash usulini ishlab chiqish «Olmaliq KMK» AJ 2021-yil «21» sentyabrdagi №167 son buyrug'i bilan ishlab chiqarishga joriy qilingan (2022-yil «6» sentyabrdagi №132 sonli dalolatnomasi). Natijada, konlarning rentabelligini baholash ishlab chiqarish faoliyatining 15% tavakkalchiligini so'ndirish va boshqarish samaradorligini 7%ga oshirish imkonini berdi;

«Olmaliq KMK» AJning muvozanatlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi modeli va uning algoritmini ishlab chiqish; «Olmaliq KMK» AJ 2021-yil «21» sentyabrdagi №167 son buyrug'i bilan ishlab chiqarishga joriy qilingan (2022-yil «6» sentyabrdagi №132 sonli dalolatnomasi). Natijada, korxonaning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga to'sqinlik qiluvchi ko'rsatkichlarni yaxshilash yuzasidan 2022-yilda 2% samaradorlikka erishildi va bu korxonaga uchun 12 mln. so'm mablag'ni tejashga imkon bergan;

«Olmaliq KMK» AJning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va oltin qazib olish sanoati korxonalarida ilg'or texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish mexanizmi ishlab chiqildi hamda «Olmaliq KMK» AJ 2021-yil «21» sentyabrdagi №167 son buyrug'i bilan ishlab chiqarishga joriy qilingan (2022-yil «6» sentyabrdagi №132 sonli dalolatnomasi). Natijada, korxonada ishchi kuchini malakasini oshirish 9%ga oshirish imkonini berdi va «Mis klasteri» doirasida ta'lim berish uchun malaka oshirishga xizmat qiluvchi kutubxona tashkil etildi.

Mamlakatda oltin qazib olish sanoati korxonalariga «ADVANTA» texnologiyasini joriy etilishi bo'yicha «Micromine Beyond» texnologiyasi asosida tashkiliy-iqtisodiy mexanizm ko'rsatkichlari prognozini sarhisob qilish «Olmaliq KMK» AJ 2021-yil «21» sentyabrdagi №167 son buyrug'i bilan ishlab chiqarishga joriy qilingan (2022-yil «6» sentyabrdagi №132 sonli dalolatnomasi). 2023-yilda mehnat unumdorligi 9% oshishi prognozi kutilmoqda.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan

5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Ilmiy tadqiqotning asosiy g'oyasi, unda ilgari surilgan fikr va mulohazalar yuzasidan jami 5 bosma taboq hajmda maqola va 8 ta respublika va xorij nashriyot (jurnal va to'plam)larida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti shakllantirilgan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ilmiy ishlar, dissertatsiya tuzilishi ma'lumotlari berilgan.

Dissertatsiyaning «**O'zbekiston oltin qazib olish sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini nazariy va uslubiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida mamlakatimizda oltin qazib olish sanoati korxonalarida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning maqsadi va vazifasi, uni takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Oltin qazib olish korxonalarini iqtisodiy rivojlantirish indikatorlari usuli asosida baholashda muallif yondashuvi aks ettirilgan.

Korxonalarni iqtisodiy rivojlantirish indikatorlari usuli indikatsion baholash asosida tuzilgan, uning tadqiqot ishidagi maqsadi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini faollashtirishga qaratilgan ko'rsatkichlarni tahlil qilish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etishdir.

Dissertatsiya ishida jahon mamlakatlarining freymvorkli tadqiqot va uning qoidasi bo'yicha tarkibidagi tanlanma tahliliy va strategiyalarni qo'llash asosida korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yuzasidan mumkin bo'lgan jihatlari taklif etilgan.

1-jadval

«Olmaliq KMK» AJning asosiy ko'rsatkichlari (2017-2021 yy.)³

№	Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	2017 y	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y
1	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi	Mrld.so'm	26572,4	26993,2	28764,4	31374,2	31755,3
2	Investitsiya dasturi doirasida mablag'lar yo'naltirilganligi	Mrld.so'm	45327,3	45534,5	52673,5	55576,1	59413,4
3	Yangi ish o'rinlarini tashkil etish	Kishi	56	65	62	55	34
4	Mahsulot tannarxini pasaytirish dinamikasi	Mrld.so'm	455	467	516	522	523
6	Mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish	Mrld.so'm	147,4	133	149,4	154,3	156,7
7	Sof foyda	Mrld.so'm	11004,6	10056	11330,9	12052,2	12273,4

³ «Olmaliq KMK» AJ ma'lumotlari

Tadqiqotning «Mamlakat iqtisodiyotini innovatsion taraqqiy ettirish sharoitida oltin qazib olish sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy holat tahlili» nomli ikkinchi bobida «Olmaliq KMK» AJ va «Navoiy KMK» AJning tashkiliy-iqtisodiy holati tahlil qilingan va mexanizmi faollashtirish masalalari ochib berilgan.

«Olmaliq KMK» AJning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ko‘rsatkichlarini ifodalashda ijtimoiy me‘zonni tahlil qilganda, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish 2017-2021-yillarda ijobiy natijani bergan. Korxonada xavf yuqori bo‘lgan shaxtalarda avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish faoliyati tashkil etish takomillashtirilganligi aniqlandi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi natijalari korxonaning barqaror ish faoliyatini tavsiflaydi. Investitsiya doirasida o‘zlashtirilgan mablag‘lar investitsion salohiyatning samaradorligini tavsiflaydi.

Mahsulot tannarxini kamaytirishda «Olmaliq KMK» AJ qator yutuqlarga erishgan: 2018/2017-yil nisbatida 12 mlrd.so‘m mablag‘ tejalgan. 2019/2018-yil nisbatida 50 mlrd.so‘m, 2020/2019-yil nisbatida 6 mlrd. so‘m, 2021-2020-yilga 1 mlrd.so‘m mablag‘ tejaldi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida «Olmaliq KMK» AJning faoliyati ijobiy holat ko‘rsatkichlarni qayd etgan bo‘lib, 2018-yilda mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi yuzasidan 14 mlrd.so‘m kamroq natija bergan bo‘lsada, 2019-yilda 2018-yilga nisbatan 1,03% ga o‘shish sur‘ati kuzatildi. Shuningdek, 2020-yilda 2019-yilgan nisbatan bu ko‘rsatkich turg‘unlikni saqlab qolgan, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 1,01% ga oshgan.

2-jadval

Mamlakatimizda oltin qazib olish sanoati korxonalarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini iqtisodiy rivojlantirish indikatorlari asosida baholash usuli⁴

t/r	Ko‘rsatkich nomi	Me‘yor	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil
1	2	3	4	5	6	7	8
Korxonaning raqobatbardoshlilik ko‘rsatkichi							
1.	Korxonaning tuzilmaviy holatini baholash	1-0,55	0,58	0,58	0,59	0,59	0,59
2.	Intensiv raqobatbardoshlilik	1-0,55	0,55	0,56	0,56	0,62	0,64
3.	Bozor rentabelligini hisobga oluvchi intensiv raqobatbardoshlilik	0,5≤0,01	0,44	0,44	0,47	0,48	0,48
4.	Bozor raqobatbardoshligida mahsulotning ulushi	-	0,38	0,39	0,42	0,43	0,45
5.	Bozordagi raqiblar intensiv raqobatbardoshlilik ko‘rsatkichi	Rb≥0,01	0,56	0,56	0,53	0,52	0,52
Korxonani innovatsion takomillashtirish							
6.	Mahsulot xarajatlari va rentabellik asosida rivojlantirish	T≥0,3	0,23	0,17	0,19	0,22	0,23
7.	Mahsulotning sifati va unga bo‘lgan talab	N≥0,1	0,41	0,41	0,42	0,42	0,42
8.	Strategik marketingda mahsulotning chekli me‘yori	Nm ≥ 0,2	0,22	0,22	0,22	0,22	0,22

⁴ Muallif ishlanmasi

Moliyaviy ko'rsatkichlarni baholash							
9.	Qoplash ko'rsatkichi	$L_j \geq 0,1$	0,1116	0,1134	0,1152	0,1116	0,1224
10.	Likvidlik ko'rsatkichi	$L \geq 0,4$	0,478	0,492	0,496	0,458	0,532
11.	Manyovra qo'llash koeffitsienti	$Str \geq 0,3$	1,5	1,5	1,6	1,5	1,5
12.	Aylanma kapitalning aylanma koeffitsienti	$Pfi \geq 0,2$	1	1	1	1,1	1
Tashkiliy-iqtisodiy rivojlantirish							
13.	Mahsulotning rentabelligi	-	1,14	1,19	1,22	1,23	1,23
14.	Raqobat muhitida tashkiliy funktsional raqobatbardoshlilik	-	1,09	1,1	1,11	1,14	1,14
15.	Mahsulotning xayotiylik indeksi	-	1,11	1,11	1,12	1,11	1,11
Investitsion rivojlantirish							
16.	Tadqiq etilgan davr uchun investitsiya daromadning o'sish sur'ati	$Is \geq 1$	1	1	1,16	1,06	1,07
17.	Tashqi bozorda mahsulotning raqobatbardoshlilik	$Cf \geq 0,1$	0,27	0,28	0,28	0,28	0,28
18.	Yangilangan asosiy fondlarni tashkillashtirish	$Mc \geq 0,2$	0,23	0,23	0,23	0,23	0,23
19.	Sof diskontlangan daromad	$Sd \geq 0,1$	0,3	0,33	0,4	0,34	0,35
20.	Daromadlilik darajasi	$Ps \geq 0$	0,5	0,5	0,7	1	1
Mahsulot tannarxini pasaytirish							
21.	Mahsulot tannarxini umumiy yangilanganligi	$\Delta Pg \geq 0,3$	0,3	0,31	0,33	0,35	0,33
22.	Yordamchi materiallar, transport, energiya xarajatlar asosida mahsulot tannarx o'zgarishi	$\Delta Pm \geq 0,2$	0,28	0,28	0,29	0,29	0,29
23.	Ishchilarning mehnat unumdorligi va maoshi hisobiga tannarxning o'zgarishi darajasi	$Phr \geq 0,2$	0,05	0,04	0,03	0,03	0,03

Korxonaning tuzilmaviy holatini baholash korxonadagi ishchilarning qo'nimsizligi, boshqaruv qarorlarining bajarilishi, boshqaruv faoliyatining samaradorligi hamda rejaga muvofiq strategiyalarni olib borilishini nazarda tutadi. Mazkur holatda «Olmaliq KMK» AJ me'yoriy ko'rsatkich doirasidagi natijalarga ega bo'lib, 2017-2021-yillar mobaynida o'rtacha 0,59 koeffitsientga muvaffaq bo'lgan.

Intensiv raqobatbardoshlilik ko'rsatkichi mavjud resurslardan samarali foydalanish hisobiga erishiladigan natija, bunda korxonani boshqarish mahoratining salohiyati darajasi muhimdir. Bu holatda «Olmaliq KMK» AJda intensiv raqobatbardoshlilik natijalari boshqaruv faoliyatining to'g'ri tashkillashtirilganligidan dalolat beradi.

Bozor rentabelligini hisobga oluvchi intensiv raqobatbardoshlilik darajasi «Olmaliq KMK» AJning aktivlari rentabelligi darajasiga muvofiq resurslardan samarali foydalanish salohiyatini ifodalaydi. Bunda «Olmaliq KMK» AJ 0,5 ya'ni yuqori ko'rsatkichga yaqin natijalarga ega bo'lib, uning raqobatbardosh korxonaligini bildiradi.

Bozorda raqobatbardoshlilik ko'rsatkichi bo'yicha mahsulot ulushi milliy iqtisodiyotning muhim indikatorlaridan biri sanaladi. Mazkur ko'rsatkich yuzasidan «Olmaliq KMK» AJning mahsulot ulushining raqobatbardoshlilik jahon bozorida ham o'zini namoyon eta olish ko'rsatkichlariga egaligidan dalolat beradi. Bozordagi raqiblarning intensiv raqobatbardoshlilik ko'rsatkichi «Olmaliq KMK»

AJ ko'rsatkichlariga qaraganda yuqori bo'lib, bu «Olmaliq KMK» AJning kengayib borayotganligini anglatadi.

Mahsulot xarajatlari va rentabellik asosida rivojlantirish ko'rsatkichi «Olmaliq KMK» AJda me'yor darajasidan past natijalarga ega bo'lib, bunda mahsulot rentabelligini ta'minlashda innovatsion mahsulotlarni ulushi sarhisob qilindi. «Olmaliq KMK» AJda innovatsion mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligi tufayli mahsulot tannarxining yuqorilashi hisobiga me'yor darajasidan past koeffitsientlarga ega.

Mahsulotning sifati uning talabini ifodalashda bosh me'zon va omil bo'lib xizmat qiladi. «Olmaliq KMK» AJda mahsulot ishlab chiqarish sifati va uning bozordagi talabi me'yordan ancha yuqori bo'lib, bozorda mahsulotga bo'lgan talabning va mahsulot sifatining yuqoriligi me'yor ko'rsatkichidan 4 barobar ko'proq koeffitsientga ega.

Bu indikatorga investorlar ham murojaat etgan holda korxonani baholaydilar. «Olmaliq KMK» AJ amaliyotida mazkur ko'rsatkich me'yor ko'rsatkichidan yuqori bo'lsada, barqaror ko'rsatkichlar asosida turg'unligi korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va ilmiy faoliyatini strategik boshqaruvidagi tavakkalchilikni ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Korxonalarining moliyaviy faoliyatida tanlanma ko'rsatkichlarni sarhisoblash investitsion loyiha va biznes loyihalarni takomillashtirishda, shuningdek korxonaning moliyaviy sog'lomligi, mustaqilligini baholashda xizmat qiladi. «Olmaliq KMK» AJda moliyaviy xarajatlarning qoplanish ko'rsatkichi me'yor darajasidan yuqori bo'lsada, ijobiy natijaviylikni ko'rsatdi. Umumiy holatda bu moliyaviy faoliyatni boshqaruvdagi kamchiliklarni borligidan va korxonaning o'z mablag'larini reinvestitsiya qilishga kam jalb etilganligini anglatadi.

Moliyaviy xarajatlarni amalga oshirishda hamkor, yordam sifatida bank, investorlar, sarmoyadorlar hamda korxonaning mablag'lari ulushi tarkiblarga ajratilganligini ifodalaydi. Natijalar ijobiy sanalsada, korxonaning moliyaviy holatini mustahkamlash talab etiladi, buning uchun strategik stsenariy, mexanizm ishlab chiqish taqozo etiladi.

«Olmaliq KMK» AJning moliyaviy operatsiyalarini samarali amalga oshirilishi salohiyati muqobil ko'rsatkichlarga ega va bu korxonaning ustun tomonini bildiradi. Manyovr qo'llash koeffitsienti moliyaviy faoliyatning strategik va mahoratona olib borilishini sarhisoblashda xizmat qiladi. Tahlilni chuqurlashtirishda ma'lum bo'ldiki, manyovr qo'llashda asosiy ustunlikni majburiy va ijtimoiy hamda ilmiy rivojlantirishga qilingan to'lovlarning tezkorligi va rejaga muvofiq amalga oshirilishidir. Aylanma kapitalning aylanma koeffitsienti investitsion salohiyati va moliyaviy afzalliklari korxonaning ustunligini oshirib borishini anglatadi.

Investitsion faoliyat har bir korxonaga uchun qo'shilgan qiymat yaratishda ahamiyatga ega. «Olmaliq KMK» AJda investitsion rivojlantirishni baholashda tadqiq etilayotgan davr uchun investitsiya daromadining o'sish sur'ati korxonaga kiritilgan investitsiyaning samaradorligi darajasini aniqlashda xizmat qiladi.

«Olmaliq KMK» AJning investitsion daromadining o'sish darajasi 2017 va 2018-yillarda 100%ni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda 2018-yilga nisbatan 16% va

2020-yilda 6%, shuningdek 2021-yilda 7%ga o'sish sur'ati kuzatiladi. Bunda investitsion faoliyatning muvaffaqiyatli jalb etilishiga qaramasdan, investitsion pul oqimlaridan boshqa turdagi moliyaviy mablag'larning ulushi ko'proq ekanligini ifodalaydi. Bu korxonaga uchun kredit va aksiyalar savdosini anglatadi. Qo'shilgan qiymat yaratishda investitsiyaning ishtirokini kamligi tavakkalchilikni keltirib chiqaradi.

Tashqi bozorda mahsulot raqobatbardoshligi darajasi korxonaning rekviziti sifatida investitsion jozibadorligini baholashda xizmat qiladi. «Olmaliq KMK» AJning tashqi bozorda mahsulotning raqobatbardoshlik ko'rsatkichi o'rtacha 0,28 koeffitsientni tashkil etadi. Bu «Olmaliq KMK» AJning nufuzli oltin qazib oluvchi korxonalarining ishlab chiqaradigan mahsuloti bilan raqobatlasha olishini nazarda tutadi.


Yangilangan asosiy fondlarni tashkillashtirish korxonani texnologik va intellektual investitsiya asosida rivojlantirishni baholashda xizmat qiladi. 2017-2021-yillarda bu ko'rsatkich barqaror 0,23 koeffitsientdan iborat. Bu «Olmaliq KMK» AJda zamonaviy texnologiyalarning ishlab chiqarish obyektlariga nisbatan kam jalb etilganligini anglatadi. Bunda korxonaga obyektlariga zamonaviy asbob-uskunalar, texnologiyalarni jalb etishni taqozo etadi. Aks holda, ishlab chiqarish faoliyatida uzilishlar yuzaga keladi, ilg'or texnologiya asosida ishlab chiqarish faoliyati tezkor amalga oshirilsa, bosqichma-bosqich bajariladigan ishlarda keskin katta hajmdagi ishni amalga oshirish yoki ulgurmaslik holatlari asosida yangilanmagan texnikalarning ma'naviy eskirishi tezlashadi.

Sof diskontlangan daromad investitsion faoliyatning chegirma miqdorini baholashda muhim, bu holatda ijobiy natijalar qayd etilgan. Daromadlilik darajasi investitsion loyihalarning to'g'ri tashkillashtirilishi va samarali yuritilishini ta'minlashini baholashda xizmat qiladi. Bu holatda natija 0 ga teng bo'lmasligini ta'minlash muhim. Negaki, investitsiyaning jalb etish qo'shilgan qiymatni yaratishga xizmat qilishi lozim. Shunga ko'ra, 2017-yilda investitsion loyihalarning daromadlilik 2017-2021-yillar uchun o'rtacha 0,74 o'sish sur'atiga ega. Bu investitsion loyihalarni jalb etish intensivligidagi muammolarni ko'rib chiqishga e'tibor berish lozimligini anglatadi.

Mahsulot tannarxi korxonaning xarajatlari bilan hisoblashadigan ko'rsatkich sanalib, uni pasaytirishning ko'plab yo'llari mavjud. «Olmaliq KMK» AJda mahsulot tannarxini pasaytirish yuqori darajada bo'lmasada, mahsulot tannarxini pasaytirishda mahsulot ishlab chiqarish texnologiyalarni tejamkor texnologiyalarga almashtirish yoki transformatsiyalashni taqozo etadi. Ushbu ko'rsatkichni natijaviyligini oshirishda energiya va transport xarajatlari hisobidan kamaytirish ulushi mavjud bo'lib, 2017-2021-yillarda o'rtacha 0,29 koeffitsientdan iborat. Bu «Olmaliq KMK» AJning transport va energiya uskunalari modernizatsiyasini anglatadi.

Ishlab chiqarishda mahsulot tannarxini ijtimoiy to'lovlar hisobidan pasaytirish strategiyasi faqatgina jazo holatida qo'llanilgan, bunda asosiy maqsad mahsulot tannarxini pasaytirish emas balki, kadrlar boshqaruvini muqobillashtirishdir. Bu ko'rsatkichning salbiy natijadali korxonadagi ishchilarning ijtimoiy muhofazalanganligini va korxonaning moliyaviy barqarorligini anglatadi.


Yuqoridagilarni hisobga olgan holda «VUCA-Prime» freymvorki tarkibi va tavsifi bilan tanishish, uning elementlarini tadqiq etish hamda freymvorkni ishlab chiqarishga tadbiq etgan holda korxonani strategik boshqaruv faoliyatini modelli baholash sxemasini tartiblashtirish talab etiladi. (1-rasm) Qolaversa, freymvork baholash o'z ichiga kamida 4 ta modelni olishi bilan korxonalarining strategik rejalashtirish bo'limlarini ichki imkoniyatlarini baholashda keng qo'llanilishi oqibatida ommalashib bormoqda.



1-rasm. Oltin qazib olish sanoati korxonalari strategik boshqaruv faoliyatini «VUCA-Prime» freymvorki asosida baholash sxemasi⁵

⁵ Muallif ishlanmasi

Korxonada daromadini maksimallashtirishda istiqbollarni belgilash muhim sanaladi. «Olmaliq KMK» AJ uchun 4 ta asosiy istiqbolni ajratib ko'rsatishni joiz deb topdik: malaka va o'sish, ishlab chiqarish, mijozlar va moliyaviy istiqbollari. Ularning barchasi ishlab chiqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini muvozanatlashtirishga xizmat qiladi. (2-rasm.)




2-rasm. «Olmaliq KMK» AJning muvozanatlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi modeli⁶

Ishlab chiqarish istiqbolida ko'plab ishlab chiqarish elementlarining majmuaviy holatda yaxshilanishi ko'zlangan bo'lib, unda ishchilarni ishlab chiqarishdagi ishtirokini unumdor bo'lishiga qaratilgan. Bunda ishlab chiqarish sifatini va samaradorligini oshirishda ishlab chiqarishdagi yer osti kon shaxtalarida ish faoliyatini bir-biriga bog'liqligini 50/50 ta'minlash asosiy ahamiyat kasb etadi. Kon shaxtalarida ish faoliyatini bir-biriga bog'liqligini 50/50 ta'minlashda ish hajmiga bog'liq bo'lmagan maoshli ishchilarni ish faoliyati boshida ish hajmiga bog'liqmasligini saqlab, kon qazishni 1 dan keyingi bosqichlarida ish hajmiga bog'liqligini ta'minlash ish faoliyatidagi sinergiyani oshiradi. Natijada, korxonaning bozordagi ishtiroki va hodimlar orasidagi hamjihatlik samaradorligini oshiradi. Barcha yuqorida keltirilgan elementlarni strategik hamkorlikda

⁶ Muallif ishlanmasi

mujassamlashtirish orqali daromadni o‘stirish, harajatlarni muqobillashtirish va nomoddiy aktivlarning qiymatini oshirish mumkin. Bunda moliyaviy istiqbollik yuzaga kelib, korxonada daromadini maksimallashtirish imkoniyati yaratiladi va muvozanatlashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi modeli va uning algoritmini tuzish taqozo etiladi.

«Olmaliq KMK» AJning muvozanatlashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi modeli va uning algoritmini korxonada faoliyatida qo‘llash orqali ishlab chiqarish jarayonida mehnat unumdorligini oshishi, xarajatlarning qisqarishi va to‘g‘ri yo‘naltirilishi, alohida jamg‘arma sifatida tashkillashtirilib xarajatlarni muvozanatlashtirish hisobiga o‘shishi ko‘rsatkichlarni barqaror ravishda oshishiga xizmat qiladi. (3-rasm)




3-rasm. «Olmaliq KMK» AJning muvozanatlashtirilgan ko‘rsatkichlar algoritmi ⁷

⁷ Muallif ishlanmasi


Tadqiqot ishining uchinchi bobi «Oltin qazib olish sanoati korxonalarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish samaradorligi va istiqbollari» deb nomlanadi. Mazkur bob doirasida mamlakatdagi oltin qazib olish sanoati korxonalarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilg'or texnologiyalar, boshqaruv ofis hamda mexanizmni faollashtirishga xizmat qiluvchi rag'batlantirish choralari, ularning amaliy qo'llanilishi natijasida ko'zda tutilgan erishilajak samaradorlik hamda 2031-yilga qadar iqtisodiy istiqboli ko'rsatkichlarini qamrab olgan.

«Olmaliq KMK» AJning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan «ADVANTA» texnologiyasi mos sanaladi. Bu texnologiyaning ishlab chiqarishning barcha jarayonlarini qamrab olishi va loyiha ishtirokchilarini avtomatik tarzda boshqaruvini yo'lga qo'ya olish imkoniyati mavjud. Bu tizim Rossiyada ishlab chiqarilgan, MS Projest Server + Sharepoint + BI + Exsel singari dasturiy paketlarning analogidir. Texnologiya amaliyotga joriy etilishida muammolar va qiyinchiliklar tug'dirmaydi, shuningdek 2 oyda butunlay korxonani «ADVANTA» loyiha boshqaruvi ofisiga o'tkazish imkoniyati mavjud.



4-rasm. «Olmaliq KMK» AJning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi⁸

⁸Muallif ishlanmasi



5-rasm. «Olmaliq KMK» AJda «Advanta» texnologiyasini qo'llash imkoniyatlari va afzalliklari⁹

Korxonada mazkur texnologiyani joriy etishda boshqaruv faoliyatidan boshlash mumkin. Ya'ni, mazkur texnologiyani ishlatish sodda ko'rsatmalar majmuini tashkil etib, korxonaning bazaviy ma'lumotlari bilan ishlash darajasidan boshlanadi.(5-rasm)


3-jadvalda keltirilgan prognozga ko'ra mahsulot sotishdan tushgan tushum oshib boradi, mahsulotga ketgan xarajat esa kamayib boradi. 10% tejamkorlik kuzatiladi hamda sof foyda olishda ham ko'rsatkichlar salmoqli oshib borishi natijasida miqdori mutanosib ravishda o'sib boradi.

⁹ Muallif ishlanmasi

**«Advanta» texnologiyasini joriy etishning prognoz
ko'rsatkichlari(mlrd.so'm)¹⁰**

№	Moliyaviy operatsiyalar nomi	2022y	2023y	2024y	2025y	2026y
1.	Mahsulot sotishdan tushgan tushum	30,79983	30,80409	30,90844	31,02637	31,14614
2.	Mahsulotga ketgan xarajat	10,18096	9,9591	9,77104	9,58981	9,40995
3.	Sof foyda	15,15154	15,22639	16,03142	16,32879	16,08869

